

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Fil.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XAYDAROV ILHOM TUXTAYEVICH

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUG'URTA LEKSIKASINING
CHOG'ISHTIRMA TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2023

UO'K: 811.111373.46:368
811.512.133373.46:368

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

Xaydarov Ilhom Tuxtayevich

Ingliz va o'zbek tillarida sug'urta leksikasining chog'ishtirma tadqiqi 3

Хайдаров Илхом Тухтаевич

Сопоставительное исследование страховой лексики в английском и
узбекском языках 21

Ilhom Tukhtayevich Khaydarov

Contrastive study of insurance vocabulary in the English and Uzbek
languages..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/31.03.2021.Fi1.78.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

XAYDAROV ILHOM TUXTAYEVICH

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUG'URTA LEKSIKASINING
CHOG'ISHTIRMA TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2020.2.PhD/Fil1239 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tersu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Oybek Saporbaevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Ayaqulov Nurbek Abdug'appon o'g'li
filologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)


Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termez davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/3|03.2021.fi1.78.04 raqamli Ilmiy kengashning «22» dekabr 2023-yil soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190101, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (0376) 221-71-17, e-mail: termezdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termez davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (238 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190101, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (0376) 221-71-17, e-mail: termezdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «23» dekabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «23» dekabr da 51 raqamli reestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

B.Umurqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiy fanlari doktori (DSc), professor

[Handwritten signature]

A.A.Eshmo'minov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiy fanlari doktori (DSc), dotsent

[Handwritten signature]

P.U.Bakirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiy fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida zamonaviy sohalari leksikasini tadqiq etish masalasi bugungi kunda ommalashib bormoqda. Ayniqsa, ularni qiyosiy o'rganish ushbu soha terminlarini yanada keng tarqalishiga asos bo'lmoqda. Xuddi shunday, iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan, bugungi kunda hayotimizda o'rni muhim bo'lgan sug'urta terminlarini lingvistik planda tadqiq etish tilshunoslar oldidagi muhim mavzulardan biridir. Sug'urta faoliyati rivojlanishining barcha bosqichlarida andarrayting sug'urta munosabatlari tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bir nechta xorijiy tillarda erkin muloqot qila oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis (andarrayter)lar mavjudligi bilan belgilanadi. Shu sababli mutaxassislar sifatini xalqaro darajaga ko'tarishda ingliz va o'zbek tillari kesimida sug'urta sohasida qo'llaniladigan terminlarning leksik-semantik, funksional-strukturaviy, semantik-uslubiy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarni olib borilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida turli tizimli tillar terminologiyasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, xususan, sug'urta terminlarini tartibga solish bo'yicha yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda sug'urta terminlarining leksik-semantik, leksikografik va tarjima muammolarini hal etish, soha terminlarini tartibga solish mezonlarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan tillarda sug'urta terminologik tizimining diaxron jihatdan shakllanish bosqichlarini aniqlash, sug'urta terminlarining strukturaviy hamda derivatsion modellarini tasniflash, tarjima uslublarini takomillashtirishni tartibga solish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, tarjima lug'atlarni tuzish zaruriyati mavjud.

Mamlakatimizda ham tilshunos olimlar tomonidan turli tizimli tillarga mansub sug'urta sohasiga oid terminlarni grammatik, struktur-semantik, funksional jihatlarini o'rganish, leksik birliklarni qiyosiy-chog'ishtirma tadqiq etish kabi muhim vazifalar belgilangan va ayni paytda ushbu vazifalarga kirishilgan. Bizning tadqiqotimiz ham ana shu vazifalar doirasidagi ish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 2-avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 394-son "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni

tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunos olimlar H.Sonneveld, K. Loining, K. Kageura, S. Dagmar, M.S. Munos, A.A. Reformatskiy, T.V.Shetle, G.O.Vinokur, G'.Abdurahmonov, S.A.Azizov, I.J.Yuldashvlar terminologiya dinamikasi deskriptiv nazariyalari, terminologiyaning shakllanishi va uning rivojlanishi bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. Terminlarning tabiati, ularning xususiyatlari zamonaviy lingvistik tamoyillar asosida A.T.Xudoyberganova, B.N.Raximberdiyev, L.A.Avakova, X.A.Aslamov, A.Z. Abduraxmanova, P.Nishonov, X.D.Paluanova, D.X.Kadirbekovalar ilmiy ishlarida yoritilgan.

Iqtisodiyotga oid terminlar tahlili esa N.V.Buyanov, A.Sh.Davletukaeva, O.V.Dovish, Ye.N.Trifonova, N.A.Nazarenko, O.L.Shaxbazyan, N.N.Gorbunovalar tomonidan, terminlarning leksik-semantik, funksional-strukturaviy xususiyatlari H.A.Dadaboyev, J.Do'stmuhammedov, Ch.S.Abdullayeva, Q.M.Musayev, O.S.Axmedov, Sh.N.Abdullayeva, Ye.T.Shirinova, N.S.Atayevalarlar ishlarida keng tahlilga tortilgan.

Sug'urta atamasi tizimini tashkil etuvchi terminlarning korpusini aniqlash, sug'urta sohasining frazeosemantik maydonining lingvokognitiv modeli Ye.S. Erus, D.I. Lyagaylo, L.A. Jebrunova singari tilshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Iqtisodiyot sohasi terminlari bo'yicha ilmiy izlanishlar mavjud, ammo ingliz va o'zbek tillarida sug'urta leksikasining chog'ishtirma tadqiqiga bag'ishlangan maxsus tadqiqot ishi olib borilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ishlar bilan bog'liq ravishda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi sug'urta sohasida qo'llaniladigan terminlarning struktur-semantik xususiyatlarini, tarjima tamoyillarini qiyosiy-tipologik jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda termin va terminologiyaga oid nazariy qoidalarni tizimlashtirgan holda ingliz va o'zbek tillarida sug'urta terminlarining tadrijiy (xronologik) taraqqiyot bosqichlarini asoslash;

ingliz va o'zbek tillarida sug'urta sohasida faol qo'llaniladigan terminlarni aniqlash, terminlarning shakllanishidagi morfologik xususiyatlarni tadqiq qilish;

chog'ishtirilayotgan tillarda sug'urta sohasi terminlarni aniqlash, sintaktik xususiyatlarini taqqoslash;

ingliz va o'zbek tillarida sug'urta sohasida faol qo'llaniladigan terminlarni aniqlash, ularning shakllanishidagi semantik xususiyatlarni tadqiq qilish;

sug'urta sohasiga oid terminlarning, frazeologik birliklarning tarjima qilish tamoyillari va soha terminlarining tarjimada berilish usullarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillari sug'urta sohasida qo'llaniladigan leksema va so'z birikma shaklidagi terminlar tanlangan.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek tillarida sug'urta sohasida qo'llaniladigan terminlarning shakllanishi, derivatsion, leksik-semantik xususiyatlari hamda tarjima qilish usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash, qiyosiy-tipologik (chog'ishtirma), diaxron, sinxron, komponent tahlil, leksik-semantik va lingvostatistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sug'urta sohasiga oid terminlarning lingvistik tadrijiy taraqqiyot bosqichlaridagi sinxron va diaxron takomili, ingliz va o'zbek tilining turli tizimli va turli tasnifli til ekanligiga ko'ra sintaktik, semantik o'zgarishlarga uchrashi asoslangan;

tillarning morfologik, leksik-semantik va sintaktik usullarining yasashida tillarga xos bo'lgan turli sathlarda allomorflik va til tizimi bo'yicha izomorflik semantik, struktur va stilistik xususiyatlari dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida sug'urta sohasida qo'llaniladigan terminlarning kompozitsion va derivatsion jihatlarini aniqlash orqali affiksial, morfemik-morfologik, leksik modellari aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida mavjud sug'urta terminlarini adekvat tarjima qilishning eng maqbul yo'llari transliteratsiya, eksplikatsiya, generalizatsiya, kompensatsiya usullari ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Toshkent moliya instituti bakalavr va magistratura yo'nalishlarida olib boriladigan ingliz tilidagi dars ishlanmalari takomillashtirilgan;

sug'urta sohasidagi ehtiyojlardan kelib chiqib sohaga oid ikki tilli "Ingliz-o'zbek tillarida sug'urta terminlarining izohli lug'ati" yaratilgan;

sug'urta sohasiga oid terminlarning derivatsion tizimini takomillashtirish, ularni unifikatsiya qilish, tarjimada bir xillikka erishish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

nofilologik oliy o'quv muassasalari talabalari uchun ixtisoslik bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar, ikki tilli o'quv terminologik lug'atlar tuzishda, ingliz va o'zbek tillari leksikografiyasi bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan xulosalarning qat'iyiligi, muammoning aniq qo'yilganligi va asosliligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullar, tegishli tashkilotlar tavsiyasiga ko'ra chop etilgan lug'atlar, tahlillarning ingliz va o'zbek tili tabiatidan kelib chiqilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiq qilinganligi, shuningdek, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chog'ishtirilayotgan tillar sug'urta sohasida qo'llaniladigan yangi terminologik birliklarning hosil bo'lishida etakchi usul sifatida affiksatsiya tasnifi, qiyoslanayotgan tillarda ularning tuzilishi, leksik-semantik so'z yasash usullari tahlili, natijada ingliz va o'zbek tillariga xos bir qancha modellar aniqlanganligi bilan belgilanadi, shuningdek sug'urta sohasida qo'llaniladigan terminlarining tarjima usullari va leksikografik mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot materiallari va xulosalaridan iqtisodiyot va sug'urta yo'nalishlari mavjud bo'lgan oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda xususan, sug'urta terminlarini o'rgatish, ularning tillardagi ekvivalentligini qiyoslashda, shuningdek filologiya yo'nalishlarida tahsil oladigan talabalar uchun terminshunoslik, lingvistika, leksikologiya, leksikografiya kabi fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanmalar, o'quv uslubiy majmualar, ma'ruza matnlari, seminar mashg'ulotlari uchun ishlanmalar tayyorlashda, sug'urta sohasiga oid terminologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida sug'urta sohasiga oid terminlarning struktur-semantik, morfologik-derivatsion xususiyatlarini ochib berish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

sug'urta sohasiga oid terminlarning lingvistik tadrijiy taraqqiyot bosqichlaridagi sinxron va diaxron takomili, ingliz va o'zbek tilining turli tizimli va turli tasnifli til ekanligiga ko'ra sintaktik, semantik o'zgarishlarga uchrashi asoslanganligiga oid nazariy va amaliy xulosalardan AM-P3-2019062030 "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligini baholashning skoring modelini yaratish" nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (Toshkent moliya institutining 2022 yil 2 fevraldagi 5/298-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha bo'yicha tayyorlangan darslik va elektron resurslar mazmuni boyishiga erishilgan;

tillarning morfologik, leksik-semantik va sintaktik usullarining yasashida tillarga xos bo'lgan turli sathlarda allomorflik va til tizimi bo'yicha izomorflik semantik, struktur va stilistik xususiyatlari dalillanganligiga doir nazariy va amaliy xulosalardan "Farovon Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining sug'urta va moliyaviy faoliyatida foydalangan ("Farovon Sug'urta" aksiyadorlik jamiyatining 2022 yil 11 apreldagi 59-son ma'lumotnomasi). Natijada kontrastli munosabatlarning faollashuvi sababli deskriptorlar semantik jihatdan to'liq muqobil va sinonim bo'lish xususiyatlari, sug'urta terminlarining adekvat muqobili bilan birga yangi leksik-grammatik xossalari aniqlangan, sug'urta sohasiga oid materiallar, hujjatlarni to'g'ri va adekvat tarjima qilish imkoniyatlari yaxshilangan;

ingliz va o'zbek tillarida sug'urta sohasida qo'llaniladigan terminlarning derivatsion jihatlarini aniqlash orqali affiksial, morfemik-morfologik, leksik modellari aniqlanganligiga doir nazariy va amaliy xulosalardan "Euroasia Insurance" aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan bog'liq terminshunoslik tizimini takomillashtirishga, hujjatlar almashinuvidagi xato va kamchiliklarni kamayishiga xizmat qilgan (Euroasia Insurance aksiyadorlik jamiyatining 2023 yil 26 iyuldagi 539-son ma'lumotnomasi). Natijada sug'urta kompaniyasining xalqaro hamkorlik aloqalariga oid xujjatlarni to'g'ri hamda adekvat tarjima qilish, xorijiy hamkor

tashkilotlar bilan tuzilgan memorandum, bitim, bayonnoma va shartnomalar rasmiylashtirish ishlari sifat jihatidan yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta ilmiy maqola, shulardan 8 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning asosiy hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Sug'urta terminlariga doir ilmiy-nazariy qarashlar" deb nomlangan birinchi bobida tilshunoslik sohasidagi termin va terminologiyaga oid ilmiy nazariy qarashlar, sug'urta terminlarining tadqiqi va tahlili, o'zbek va ingliz tillarida sug'urta terminlarining tadrijiy (xronologik) taraqqiyot bosqichlariga doir qarashlarga munosabat bildirilgan.

Ma'lumki, fan va texnika taraqqiyoti natijasida soha yo'nalishlari bo'yicha vujudga kelayotgan terminlar muayyan til leksikasini boyitish bilan birgalikda, muloqot jarayonini to'g'ri va ravon faoliyat ko'rsatishida ham eng ilg'or vosita sifatida qo'llanilmoqda. Bunda tilning leksik sathiga kirib kelayotgan xalqaro terminlar, okkazonalizmlar, neologizmlar va boshqa leksik birliklar oqimi yanada jadallashmoqda. Turli tizimli tillarda termin so'ziga olimlar tomonidan keltirilgan ta'riflarda *termin* tushunchasi ilk bor *chegaralar ilohiyligi*, keyinroq esa *chegara toshi*, *so'nggi* yoki *tugallangan nuqta*, *joy*, *manzil* kabi bir necha mazmunlarda ifodalangan bo'lsa, o'rta asrlarga doir manbalarda esa *terminus* so'zi (biror bir narsani) *aniqlash va belgilash*, *belgilangan vaqt yoki vaqt chegarasi*, *davr* ma'nosida qo'llanilgan¹. S. Akobirov "terminni — muayyan doirada qo'llaniladigan maxsus so'z"², I. Mirzayev terminni — bilim yoki faoliyatning

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. 1-5-jildlar. — Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.; Шевчук В.Н. Производные военные термины в английском языке. — М., 1983. — 198 с.; etymonline.com

² Акобиров Ф. Лексикографическая разработка терминологии в двуязычных словарях. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Ташкент, 1969. — 25 с.

maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi soʻz yoxud soʻz birikmasi³, J.Myurrey esa *terminga “chegaralangan yoki aniq maʼnoda ishlatiladigan soʻz yoki ibora”*, — deya taʼrif beradi⁴. Termin – kasbiy faoliyatda qabul qilingan va alohida sharoitlarda ishlatiladigan maxsus soʻz yoki soʻz birikmasi, maxsus maqsadlar uchun moʻljallangan tilning asosiy tushunchaviy elementi boʻlib, oʻz terminologik maydoni ichida termin bir maʼnoda qoʻllaniladi⁵. “Terminlar paydo boʻlib qolmaydi”, aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda “oʻylab topiladi”, “ijod qilinadi”⁶.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda biz ham terminga nisbatan quyidagi taʼrifni keltiramiz: “Termin” zamonaviy tilshunoslik tamoyiliga asosan jamiyatning barcha sohalari (sport, iqtisodiyot, qonunchilik, huquq, sugʻurta, sanʼat, moliya, kitobchilik, siyosat, maorif, diplomatiya va b.)da muayyan tushunchani ifoda etadigan, maxsus funksional vazifa bajaradigan leksik birlikdir. Ular shaklan soʻz va soʻz birikmasi koʻrinishida boʻlib, termin semantik nuqtai nazaridan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan leksik birlikdir. Tilning boyligi shu til birliklari yigʻindisi bilan oʻlchanadi. Har bir terminning maʼlum soha maydonida oʻziga xos konnotativ xususiyati mavjud.

Soha yoʻnalishlarida iqtisodiy munosabatlar tizimiga oid terminlarning maʼno koʻlami, ularning rivojlanishi, lisoniy xususiyatlari masalasi milliy tilshunos olimlarimiz D.Yu.Dosmuxamedov, X.A.Dadabayev, Ch.S.Abdullayeva, Q.M.Musayev, O.S.Axmedov, Sh.N.Abdullayeva, Ye.T.Shirnova, N.S.Atayevalarning tadqiqotlarida ilmiy tahlil qilingan.

Shuningdek, Ye.S.Yerus tomonidan ingliz tilida “sugʻurta” konseptoferasi va amalda qoʻllash vositalari tahlilga tortilgan, olim life insurance, non-life kabi konsepsiyalarga urgʻu berib uning tarkibida mikro konseptiv maydonlar borligini izohlagan⁷.

D.I.Lyagaylo ham “sugʻurta” predmeti – terminologik sohasini tashkil etuvchi terminlarning ijtimoiy-madaniy va kognitiv-pragmatik parametrlarini lingvistik asoslagan, L.A. Jebrunova esa “frazеologik birliklar – murakkab terminlar” degan fikrni taʼkidlagan⁸. E.J. Verdell tibbiy sugʻurta terminlariga eʼtibor qaratgan, tadqiqotda terminlar uchun qulay sharoit yaratuvchi 19 ta katta (major) yoʻnalishlar borligini aniqlab, har bir yoʻnalishning toʻldirib turuvchi kichik (minor) tarkibiy qismlarni qayd etgan⁹.

Ingliz va rus tillarida sugʻurta sohasiga oid tadqiqot tahlillari shuni koʻrsatadiki, ingliz tilidagi ilmiy izlanishlar asosan, ijtimoiy jamiyat bilan bogʻliq holda olib borilgan. Terminlarni inson hayotida tutgan oʻrni, isteʼmoli, shaxslararo

³ Madvaliev A. Oʻzbek terminologiyasida dubletlik masalasi // Oʻzbek tili va adabiyoti. 1982. № 3. – 123 b.

⁴ www.oxfordlearnersdictionaries.com

⁵ Суперанская А.В. Общая терминология. – М.: УРСС, 2003. – С. 56.

⁶ Головин Б.Н. О некоторых аспектах лингвистического и информационного изучения термина // Научный симпозиум «Место терминологии в системе современных наук». – М., 1970. – С. 38-40.

⁷ Ерус Е.С. Концептосфера «Страхование» и средства ее реализации в английском языке: Дисс. ... канд. фил. наук. – Санкт-Петербург, 2006. – 142 с.

⁸ Жебрунова Л.А. Лингвокогнитивная модель фразеосемантического поля «страхование» (на материале английского и русского языков). – Смоленск, 2009. – 240 с.

⁹ Vardell E.J. Health Insurance Literacy, ALL RIGHTS RESERVED., Chapel Hill, North Carolina, 2017. – 236 p.

bilish darajasi so'rovnomaga, anketa, ijtimoiy statistik tajribalar orqali tahlilga tortilgan hamda til va madaniyat o'rtasida uzviy bog'liqlik masalalari tahlil markazida bo'lgan. Rus olimlari sug'urta terminlarini kelib chiqishi, yasaliş (struktur), ma'noviy (semantik), uslubiy (stilistik) xususiyatlariga ko'proq e'tibor bergan. Sug'urta sohasi terminlari tilshunoslikda o'rganilayotgan bo'lishiga qaramay, turli tizimli tillarda ularning derivatsion prinsiplari – yasaliş usullari, shakllanish va rivojlanish bosqichlari ochiqlicha qolmoqda.

Turli tizimli tillarda sug'urta sohasida qo'llaniladigan leksik birliklarning to termin bo'lishigacha bo'lgan shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy etimologiyasini o'rganish bugungi kunda ahamiyatga molikdir. Sug'urta sohasiga doir ilk me'yoriy hujjatlar eramizdan oldingi ikki ming yillikda yashab o'tgan Bobil hukmdori Hammurabi qonunlari tarkibida mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, savdo karvonlarining birortasini yukiga tabiiy hodisalar yoki qaroqchilar hujumi, o'g'riliklar natijasida zarar etganda, mulk egasiga ko'rilgan zararni o'rtada to'lab berishni nazarda tutuvchi kelishuv imzolaniş belgilab qo'yilgan. O'sha vaqtda hozirgi Markaziy Osiyo hududida qabilalarning dastlabki siyosiy birlashmalari paydo bo'lgan¹⁰.

Mavjud tarixiy manbalar tahlili sug'urta sohasiga oid leksik birliklar Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-Haqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", shayx Sulaymon Buxoriyning "Bado'-l-ul lug'at", Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy", "Xayrat ul-abror", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarai turk" va boshqa ko'pgina mutafakkirlar asarlarida o'z ifodasini topganligini ko'rsatadi. Masalan: Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida *kapsan, kefsän – xirmon ko'tarilganda kambag'al insonlarga beriladigan sadaqa-siylov* (ma'mur-amaldorlar uchun xirmondan olinadigan soliq turi sifatida ham qo'llanilgan)¹¹; "Boburnoma" asarida *arzadosht- ariza yozish; ashrafiy – pul birligi, tanga; badra – oltin yoki kumush haltasi; bay'at – kelishuv; bahravar – (imtiyozdan) foydalanuvchi; bashirkat – sheriklik; varasa – vorislik; yormoq – tanga, pul; jarov – qimmatli buyum; juldu – mukofot, hadya; irs- meros* kabilar iqtisod va sug'urta sohasiga oid leksik birliklar ko'p qo'llanilgan¹².

Inglizzabon mamlakatlar hududlarida vujudga kelgan sug'urta terminlarining tarixiy-genetik ildizlari haqida faktik-analitik ma'lumotlarda bundan 3760 yil muqaddam Bobil davlatida Xamurabi qonunlari bilan soliq turlari joriy etilganligi keltirilgan¹³. Britaniya hududida 1583-yil hayot sug'urtalash siyosati belgilangan¹⁴. 1667-yilda Kristofer Uorenn tomonidan Londonda yong'inni sug'urtalash bo'yicha yangi reja ishlab chiqilgan va 1681-yilda iqtisodchi Nikolas Barbon tomonidan uylarni sug'urta qilish uchun birinchi yong'in sug'urta kompaniyasi¹⁵, 1680-yil

¹⁰ Гомелья В.Б., Рубин Ю.Б., Солдаткин В.И. Страховой портфель. – Москва: СОМИНТЕК, 1994. – С. 7.

¹¹ Koshg'ariy M. Devoni lug'atit turk. – Toshkent: Fan, 1961. – 230 b.

¹² Bobur Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Yulduzcha, 1989. – 103 b.

¹³ Shaurov D.I., Kan U.T. Soliq qonunchiligi asoslari. – T.:1999. – B. 11.

¹⁴ Lewis Charlton; Ingram, Thomas. Insurance. In Chisholm, Hugh (ed.). Encyclopædia Britannica. Vol. 14 (11th ed.). Cambridge University Press. 1911. – P. 657-658.

¹⁵ Dickson P.G.M. Sun Insurance Office Ltd., History of Two and a Half Centuries of British Insurance. 1710-1960.

so'ngida Edvard Loyd tomonidan Londonda Loyd sug'urta bozori tashkil etilgan¹⁶. Ushbu davrlarda soha terminlari umumiste'mol leksika tarkibidan joy ola boshlagan. Jumladan, *longterm* – uzoq muddatli shartnoma; *underwriting* – (sug'urta) havfni tahlil qilish jarayoni; *adjuster* – vaziyatni nazorat qiluvchi hodim; *Binder* – vaqtinchalik shartnoma; *defendant* – huquqiy himoyachi; *peril* – (tabiiy) xavf sug'urtasi; *security* – havsizlik; *surety* – ishonchnoma.

Yaratilgan yangi tarmoqlar umumiste'moliga sug'urta sohasiga oid yangi leksik birliklarni kirib kelishiga asos bo'lgan. Shunday ekan sug'urta sohasiga oid leksik birliklar to termin bo'lishigacha bo'lgan shakllanishi va rivojlanishining o'z tarixiy taraqqiyot yo'liga ega.

Dissertatsiyaning “Sug'urta sohasi terminlarining shakllanishi va struktur-semantik xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz va o'zbek tillarida sug'urta terminlarining shakllanishida morfologik xususiyatlari, terminlarning shakllanishidagi sintaktik va semantik munosabatlar tahlilga tortilgan. Til muayyan yaxlit bir tizimdan iborat bo'lib, uning morfologiyasi ham ushbu tizimdagi o'ziga xos mikro tizimlardan tashkil topadi. Mikro tizimlarning mohiyatini tilshunoslik nuqtai nazaridan yaxlit holda yoritilishi tilning morfologik qatlamini o'rganish demakdir. “Morfologiya so'z turkumlari, ularga xos grammatik ma'nolarni, har bir turkumga xos grammatik kategoriyalarni, bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi grammatik shakl va grammatik ma'nolar va shakl ko'rinishlarini o'rganadi”¹⁷.

Sug'urta sohasiga oid terminlarining shakllanishida affiksatsiya so'z yasovchi (prefiks, suffiks, infiks va sirkumfiks) usulidan tashqari terminlar shaklini tartiba solishda, ularning tarkibida turli lisoniy elementlar (masalan: morfemik, morfologik, semantik va sintaktik) mavjud. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillarida yakka morfemik elementdan tarkib topgan quyidagi sug'urta terminlari mavjudligi aniqlandi (2.1-jadvalga qarang).

2.1-jadval

Yakka morfemik elementdan tarkib topgan sug'urta sohasi terminlari

Ingliz tili misolida		O'zbek tili misolida	
<i>arson</i> -	<i>arson</i> (muayyan mulkning qasddan yoq qilish)	<i>mablag'</i> (summa)	<i>sum</i>
<i>claim</i> -	<i>xabar</i> (sug'urtalovchiga zarar qoplanishi shartlariga asosan berilgan xabar yoki eslatma)	<i>boj</i>	<i>duty</i>
<i>title</i> -	<i>sug'urta guvohnomasi</i> (sug'urta berilganligi to'g'risida rasmiy guvohnoma)	<i>tizim</i>	<i>system</i>
<i>lapse</i> -	<i>muddati tugagan</i> (shaxsning sug'urtasiz yurgan davri)	<i>daraja</i>	<i>rate</i>
<i>quote</i> -	<i>kvota</i> (ariza beruvchining taqdim etgan ma'lumotlari asosida beriladigan sug'urta narxining smetasi)	<i>qarz</i>	<i>debt</i>
<i>limit</i> -	<i>cheklov</i> (to'lovning maksimal miqdori)	<i>muddat</i>	<i>term</i>

¹⁶ Palmer Sarah. Lloyd Edward. Oxford Dictionary of National Biography. Vol. 1. Oxford University Press. 2007. – P. 1648-1713. doi:10.1093/ref:odnb/16829. Archived from the original on 15 July 2011.

¹⁷ Hojiev A. O'zbek tilida so'z yasash tizimi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 168 b.

Bizning nazarimizda yasovchi qo‘shimchalar asosga (o‘zakka) qo‘shilganda ularning ma‘nosini o‘zgartirib yuboradi va ushbu jarayon morfologik hodisa hisoblanadi hamda ushbu jarayonni soha leksik qatlamini kengaytiruvchi maxsus lisoniy texnika deb atash maqsadga muvofiq.

Prefiksatsiya – prefixes. Ingliz tili sug‘urta sohasiga oid terminlarning hosil bo‘lishida mazkur model orqali yangi til birliklarini yasash muhim sanaladi. Old qo‘shimchalar o‘zak (morfema, asos)ka qo‘shilishi natijasida yangi til birliklari hosil bo‘ladi (2.2-jadvalga qarang).

2.2-jadval

Prefiksatsiya usuli orqali yasalgan sug‘urta sohasi terminlari

Prefixes	Ma‘nosi	Namuna	O‘zbekcha ma‘nosi
<i>anti-</i>	<i>qarshi</i>	<i>anti-theft</i>	<i>o‘g‘irlikka qarshi</i>
<i>mis-</i>	<i>xato, yomon</i>	<i>misrepresentation</i>	<i>noto‘g‘ri ma‘lumot</i>
<i>re-</i>	<i>qayta</i>	<i>release</i>	<i>barcha majburiyatlarni bajarish to‘g‘risidagi shartnoma</i>
<i>un-</i>	<i>no, kam</i>	<i>uninsured</i>	<i>nosug‘urta, sug‘urta qilinmagan</i>
<i>under-</i>	<i>da, ostida</i>	<i>underinsured</i>	<i>sug‘urtalangan</i>
<i>sur</i>	<i>qo‘shimcha</i>	<i>surcharge</i>	<i>qo‘shimcha to‘lov</i>

Ingliz tilida prefikslar, ya‘ni old qo‘shimchalar o‘zak morfemaga qo‘shilganda yangi va mustaqil leksik-semantik xususiyat – *determinativ* xususiyatga ega termin hosil bo‘ladi. Bunga sohaga doir quyidagi so‘zlar misol bo‘ladi: *re* (qayta) + *inspection* (tekshiruv) (2.3-jadvalga qarang).

2.3-jadval

Suffiksatsiya usuli orqali yasalgan sug‘urta sohasi terminlari

Suffiksatsiya – suffixes	Ot yasovchi qo‘shimchalar <i>-age; -ee; -er; -ent; -ion; -tion.</i> Sifat yasovchi qo‘shimchalar: <i>-ful; -able — ible; -al.</i> Ravish yasovchi qo‘shimchalar: <i>-ly; -ry.</i>	Ot yasovchi qo‘shimchalar <i>-chi; -lik, (-liq); -gich, (-kich, -g‘ich); -m, (-im, -um); -v, (-uv.); -(u)vchi, (-(lo)vchi).</i> o‘zlashgan qo‘shimchalar <i>-boz; -dor; -kor; -ona;</i>
Infixes – infiksatsiya.	<i>Fan-bloody-tastic!; Foot-bloody-ball!; Unfuckinbelievable</i>	-
circumfix sirkumfiksatsiya	<i>in→sur(e)←ance — insurance (sug‘urta); in→sur(e)←able — insurability (sug‘urtalanganlik); dis → abil (able)←ity — disability (nogironlik); ex→clus(close)←ion — exclusion (to‘lash, qoplash).</i>	<i>no+ sug‘urta+chi — nosug‘urtachi</i>

Chog‘ishtirilayotgan tillarda soha terminlarining birikuvida ularning soniga qarab ikki, uch komponentli va ko‘p komponentli turga tasniflash samaralidir. Biz

ushbu tasniflashni terminlarni tizim asosida lug‘at tarkibiga kiritish uchun ahamiyatli deb hisoblaymiz (2.4-jadvalga qarang).

2.4-jadval

Bir necha komponentli sug‘urta terminlari

	Ingliz tilida	O‘zbek tilida
Ikki uzvli terminlar	<i>absolute liability</i> <i>general average</i> <i>particular average</i> <i>aviation insurance</i> <i>bank insurance</i> <i>brokerage commission</i> <i>broker's lien</i>	- mutlaqo mas'uliyat; - umumiy hodisa; - xususiy hodisa; - aviatsiya sug'urtasi; - bank sug'urtasi; - brokerlik komissiyasi; - brokerlik huquqi;
Uch uzvli terminlar	<i>motor-vehicle civil liability</i> <i>joint-stock insurance company</i> <i>lloyd's underwriters association</i> <i>mutual indemnity association</i> <i>affiliated insurance company</i>	- avto fuqarolik ma'sulligi; - aksiyanerlik sug'urta kompaniyasi; - loyding mualliflar assotsiatsiyasi; - o'zaro majburiyatlar assotsiatsiyasi; - affilyasiya sug'urta kompaniyasi;
To'rt va undan ortiq uzvli terminlar	<i>motor-vehicle certificate of insurance</i> <i>association of european cooperative insurers</i> <i>health insurance association of america</i>	- motor transportini sug'urtalash sertifikatini; - yevropa kooperativ sug'urtachilari assotsiatsiyasi; - amerika sog'liqni saqlash sug'urtasi assotsiatsiyasi;

Sintaktik birikuv jarayonini Adj+N (Sifat+Ot), N+N (Ot+Ot), Ger +N (gerundiy + Ot) yoki N+Ger (Ot + Gerundiy), Num.+N (son+ot), Par. II +N. (sifatdosh II +ot) modellari asosida sug‘urta sohasiga oid terminlar tarkibida ham kuzatdik.

Ingliz tilida: *natural loss, collective insurance, continental cover, mathematical reserve, admitted company, guaranteed insurability, bodily injury, floating policy, risk loading, third party, assigned risk*. **O‘zbek tilida:** *tabiiy yo‘qotish, jamoaviy sug‘urta, mintaqaviy qoplov, matematik rezerv, tan olingan kompaniya, kafolatli sug‘urta, jismoniy jarohat, asosiy sug‘urta polisi, havf-xatarning (oldini) olish, sug‘urta tarkibiga kiritilmagan, lekin mazkur bitimdan manfaat oluvchi tomon, belgilangan havf*.

Sintaktik birikish jarayonining uchta shakli *abbrevatsiya* usulini vujudga keltiradi. Ayrim manbalarda ushbu jarayon noverbal substitutsiya (almashtirish) deb ham ataladi. Masalan, *SAP* — *Statutory Accounting Principles* (hisoblashning qonuniy tamoyillari); *ULAE* — *Unallocated Loss Adjustment Expense* (taqsimlanmagan zararni hozirlash xarajati); *RBC* — *Risk Based Capital* (tavakkalga asoslangan mablag‘).

Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek tillarida sug‘urta sohasi terminologik tizimida ikki yoki uch mutlaqo boshqa sohaga tegishli leksik birliklar asosida vujudga kelgan semantik birikmalar kuzatildi. Masalan, ingliz tilida huquq sohasiga tegishli *state* leksemasiga kitobatchilik sohasida faol qo‘llaniladigan *page* leksik birligining birikishi natijasida *state page* (foyda va zararni ko‘rsatuvchi taqdimot) so‘z birikma shaklidagi termin shakllangan. O‘zbek tilida: qurilish

sohasiga tegishli bo'lgan *qoplama* termini bilan logistika va kartografiya sohasiga taalluqli bo'lgan *chegara* terminlarining qo'shilishidan *muayyan mablag'ning so'nggi qiymati* ma'nosini bildiruvchi birikmali termin hosil bo'lgan.

Sug'urta sohasiga doir terminlarning yasash usulidan qat'iy nazar, semantik munosabatiga ko'ra quyidagi shaklda tasniflash yoki guruhlashtirish maqsadga muvofiq: **shaxs tushunchasini ifodalovchi:** *Appraiser* — baholovchi; *adjuster* — *adjuster*; **predmet yoki obyekt tushunchasini ifodalovchi:** *Insurance currency-sug'urta valyutasi*; *accompanied baggage* — sayohat davrida (*poezd, samolyot kabi transport vositalariga*) ortilgan yuk; **harakat tushunchasini ifodalovchi:** *Hit and run* — urib qochish (*transport vositasida tan jarohat etkazib ko'zdan g'oyib bo'lish*); **o'rin-joy tushunchasini ifodalovchi:** *Automobile shared market* — ikkilamchi avtomobillardan foydalanish bozori; *adjustment bureau* — tartibga solish byurosi; **turkumni** (sug'urtaning muayyan turi) **ifodalovchi:** *Medical insurance* -tibbiy sug'urtasi; *bank insurance* — bank sug'urtasi; *compulsory insurance* — majburiy sug'urta.

Kuzatuvlarimiz natijasida metafora orqali shakllangan terminlarning ikki shaklini, *bevosita metaforik munosabat* va *bilvosita metaforik munosabat* orqali shakllangan soha terminlarini aniqladik. Bevosita metaforik munosabat bilan shakllangan terminlar o'zi qiyoslanayotgan terminga nisbatan muayyan bog'lamlarga ega. Bilvosita metaforik munosabat orqali shakllangan soha terminlari odatda faqat insonning aqliy tasviri bilan metaforik bog'lanish orqali vujudga keladi.

Dissertatsiyaning “**Ingliz tilidagi sug'urta sohasiga oid leksik birliklarini o'zbek tiliga tarjima qilish usullari**” deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va o'zbek tilidagi sug'urta terminlarining tarjimaviy ekvivalentlik xususiyatlari, tarjimada leksik qatlam imkoniyatlari, sug'urta terminologiyasiga tegishli frazeologik birliklarning tarjima tamoyillari o'rganilgan.

Tarjima ikki yoki bir necha tillarning o'zaro munosabatini alohida shakl sifatida taqdim etuvchi asosiy ijodiy jarayondir. Terminologiya sohasida “tarjimaviy ekvivalentlik” muhim o'rni tutadi. Ushbu tushuncha tarjima sohasidagi markaziy tushunchalardan biri hisoblanib, tildagi semantik tarjima muammolari yechimining mazmuniy jihatini o'rganish jarayoni bilan bevosita bog'liq deyish maqsadga muvofiqdir. Tarjimaviy ekvivalentlikga “bir tildagi manbaning o'zga bir tildagi tasvir, ta'sir, ma'no darajali mos keluvchi manba bilan almashtirish” ta'rifini berish mumkin.

Sug'urta sohasida xorijiy tillardan o'zlashgan ba'zi terminlar soha mutaxassislariga asliyatni tarjima qilish jarayonida ikki xil usulda: bir qismi o'zlashtirish (*borrowing*) usuli, bir qismi esa lisoniy ekvivalent (*o'zbekcha muqobillari*) bilan almashtirish orqali amalga oshiriladi. Jumladan, o'zlashmalar orqali shakllangan terminlar: *abandon* — *abandon* (*mablag' yoki mulkdan voz kechish*); *adjuster* — *adjuster* (*sug'urta kompaniyasi foydasiga xizmat qiluvchi hodim*); *acquisitor* — *akviz(s)itor* (*sug'urta agenti yoki boshqa sug'urta xodimi*); *rider* — *rayder*; *marketing* — *marketing*; *bonus* — *bonus*; *bordero* — *bordero*; *dividend* — *dividend* (*mablag' qismi*) va *hokazo*.

Muqobillari (ekvivalentlik) orqali shakllangan terminlar: Absolute liability – mutlaq javobgarlik; general average – umumiy hodisa; national insurance – milliy sug'urta; discount – chegirma; contract of insurance – sug'urta shartnomasi; natural loss – tabiiy yo'qotish (tovar (sabzavot, poliz va mevalarning)ning tabiiy zarari) va hokazo.

Bizning nazarimizda terminlarning tarjimasiz shaklda o'zlashtirish yoki tilda iste'mol qilish jarayonining asosiy sabablari quyidagicha: 1) shaxsning multilingual (ko'p tilli) muloqotga kirishish natijasida so'zning bir tildan boshqa tilga o'tishi; 2) bir tilning ikkinchisiga nisbatan faol qo'llanilishi yoxud dunyo tillari tarkibiga kirishi (ijtimoiy muloqot) natijasida; 3) ta'lim-texnologiya sohasining globallashuvi natijasida; 4) kishilarning qulaylik keltirgan boshqa tildagi leksik birlikdan foydalanishi natijasida.

Tahlillarga tayangan holda shuni qayd etish kerakki, tarjimada berilgan har qanday terminga lisoniy talablar qo'yilishi lozim. Bu shu leksik birlikning umumiste'molda bardavom, barqaror hamda ma'lum til tizimida o'z o'rnini topishga xizmat qiladi. Jumladan: 1) rasmiylik, qat'iylik, neytrallik; 2) maksimal (o'ta) aniqlik; 3) qisqalik, soddalik, lo'ndalik; 4) uyg'unlik talabi.

Tadqiqotlar davomida terminlarning ifodasini to'liq taqdim qilishda matnning o'rnini muhim ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ikki til o'rtasida mavjud bo'lgan farqlarni hisobga olgan xolda tarjimada asliyatning barcha xususiyatlarini saqlab qolish uchun tarjima sohasiga doir leksik birliklarni ekvivalentlar va moslangan guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqligi ilmiy asoslandi: Ekvivalentlar – berilgan manbadan qat'i nazar, har ikkala tilda ham ma'nolari doimo mos keladigan so'zlar (*terminlar, shaxs nomlari va geografik nomlar*). Tarjima jarayonida ekvivalentlar tarkibiga kirmaydigan boshqa barcha leksik birliklar leksik moslik guruhiga kiradi. Bunda ingliz tilidagi birgina so'z o'zbek tilida bir nechta ma'noni anglatishi mumkin. Masalan: *supply* – a) zahira, bozordagi tovarning umumiy miqdori (sohaga doir); b) taklif; v) sahnalashtirish, etkazib berish; g) (texnik) elektr ta'minoti (joriy) va boshqalar.

Tadqiqot jarayonida sug'urta sohasiga doir terminlarni tarjima qilishda ba'zan ikki tilning leksik imkoniyatlari lingvokulturologik omillar asosida bir biriga mos kelmasligi aniqlandi.

Qayta joylashtirish – so'zlar tartibini o'zgartirish. Mazkur tarjima turi akademik tarjima tarkibida tatqiq etiladi. Bu jarayonda terminning ma'nosini yo'qotmaslik uchun tarjimada so'z turkumlarini o'zgartirib tarjima qilish. Masalan, *survey report (in foreign insurance practice, a document confirming the nature, size and causes of loss in the insured property - hodisa hisoboti (xorijiy sug'urta amaliyotida sug'urtalangan mulkning xususiyati, hajmi va zarar sabablarini tasdiqlovchi hujjat)*.

a) Almashtirish jarayoni:

1) grammatik almashtirish. O'zbek tilida: *the Britain insurance (N+N)* – Britaniya sug'urtasi (Sif.+Ot); *ticket policy (N+N)* – chipta polisi (Sif.+Ot). ingliz tilida: *insurance charges (N+N)* – sug'urta to'lovlari (Sif.+Ot); *bank charges*

(N+N) — *bank to'lovlari* (Sif.+Ot) ; *hospital insurance* (N+N) — *kasalxona sug'urtasi* (Sif.+Ot).

2) leksik almashtirish: a) bir tilda ma'lum bir ma'noga ega bo'lgan leksik birlik o'rniga, boshqa tilda umumiy ma'noga ega bo'lgan leksik birlikni tanlash. Ingliz tilida: *Britain has various dealings with the rest of the world* (*economist.com*) — *Angliya butun dunyo bilan keng iqtisodiy aloqalarga ega*;

b) Konkretlashtirish texnikasi — ikki tilli lug'atlarda mavjud bo'lgan leksik birliklarga qaraganda tarjima jarayonida aniqroq yoki o'ziga xos moslik hamda ma'no qirralarini tanlash sifatida tavsiflanishi mumkin. Masalan, *to go cheap* — *arzonga sotilmoq* (iqtisodga doir). Ingliz tilida: *I have some product I'm trying to unload, and I'll let it go cheap* — *Menda sotiladigan bir qancha mahsulotlar bor va men ularni arzonga bermoqchiman*.

s) Antonimlardan foydalanish: antonimik tarjima tarjima tili uchun asl fikrni eng mos va tabiiy ifodalash maqsadida qo'llaniladi. *They failed to fulfill the obligations* (*economist.com*) — *Ular o'z majburiyatlarini bajara olmadilar*.

